

**O‘zbekiston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vazirligi**

5510700 – Oliy hamshiralik ishi
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent

SO‘Z BOSHI

1. ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Respublika tibbiy ta‘limni rivojlantirish markazi;
- Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

2. TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligining 2018 yil «2» oktyabrdagi 564- sonli buyrug‘i.

3. JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi.

Mazkur malaka talabni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘likni saqlash vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi	4
1.1. Qo‘llanish sohasi	4
1.2. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi	4
2. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar	6
2.1. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar	6
2.2. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo‘yiladigan malaka talablari	7
3. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar	8
3.1. O‘quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar	9
3.2. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi yuklama hajmi	12

1. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi

5510700 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta'limning o'quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga «bakalavr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

O'quv reja va fan dasturining me'yoriy muddati va mos malaka(daraja)si 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O'quv reja va fan dasturining muddati va bitiruvchilarning malaka(daraja)si

O'quv reja va fan dasturining nomi	Malaka (daraja)	O'quv reja va fan dasturini o'zlashtirishning me'yoriy muddati
Bakalavriatning o'quv reja va fan dasturi	Bakalavr	3 yil

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Oliy ta'limning ushbu malaka talabi **5510700 – Oliy hamshiralik ishi** ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Oliy ta'lim muassasasi mazkur bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda malaka talabi asosida o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

1.1.3. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

– o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

– bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

– oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

– ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

1.2. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.

1.2.1. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

5510700 – Oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi – fan va sog'liqni saqlash sohaslariga tegishli yo'nalish bo'lib, sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o'rtasida o'tkir va surunkali kasalliklarning tarqalishini oldini olish, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, zamonaviy usullardan keng foydalangan holda bemorlarni sog'lomlashtirish

bo'yicha asosiy muammolarni hal qilish, sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo'yicha kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohaslarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.2. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

– sog'liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, sog'liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, ilmiy-tadqiqot ishlari, me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar;

– tibbiyot asbob-uskunalari, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

– jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

– ilmiy-tadqiqot jarayoni;

– o'z yo'nalishi bo'yicha o'rta mahsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatini yuritish jarayoni.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

5510700 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

– *sog'liqni saqlashni birlamchi tizimida tibbiy faoliyatni tashkil etish;*

– *aholi orasida keng tarqalgan o'tkir va surunkali kasalliklar bo'yicha barcha turdagi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbiq etish;*

– *shoshilinch yordam ko'lami bo'yicha zarur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish hamda amaliyotda qo'llash;*

– *tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan kasalliklar hamda muommolar bo'yicha zamonaviy ma'lumot, bilimlarga ega bo'lish va faoliyati davomida ular to'g'risidagi ma'lumotlar bilan muntazam tanishib borish;*

– *aholi orasida sog'lom turmush tarzi targ'ibotiga qaratilgan chora-tadbirlarin o'tkazish;*

– *reabilitatsiya choralari talab qilinadigan holatlarda, ularni aholiga zarur bo'lgan darajada qo'llash chora-tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish ;*

– *aholini ijtimoiy muhofaza qilishda uning uchun ma'sul bo'lgan tashkilotlar bilan hamkorlikda mavjud resurslardan unumli foydalanish;*

– *sog'liqni saqlash birlamchi tizimining mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarishda ishtirok etish;*

– *tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan muommolar bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini talab darajasida olib borishda ishtirok etish.*

1.2.3. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

• *tashkiliy-boshqaruv;*

• *tibbiy-profilaktika;*

• *uslubiy;*

• *tashxislash;*

• *reabilitatsiya;*

• *ilmiy-tadqiqot;*

• *tibbiy-ijtimoiy;*

• *pedagogik (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida).*

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

1.2.4. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy moslashuv imkoniyatlari

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan so'ng o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishi mumkin.

1.2.5. Ta'limni davom ettirish imkoniyatlari

5510700 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr kasbiy tayyorgarlikdan keyin:

- *5A510701 – Oliy hamshiralik ishi* magistratura mutaxassisligi bo'yicha ikki yildan kam bo'lmagan muddatda o'qishni davom ettirishi mumkin.

Shuningdek, o'rnatilgan tartibda mustaqil tadqiqotchilik asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin.

2. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar

2.1. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar:

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va tabiiy ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- Vatan tarixini bilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Bakalavr:

- ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;

- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadilar.

2.2. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablari

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- malakali hamshiralik yordamini tashkil etish, yoritish va nazorat qilish;
- moddiy, mehnat va informatsion resurslardan ratsional foydalanishni ta'minlash;
- hamshiralik xizmatini to'g'ri ta'minlashni tashkillashtirish;

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish salmog‘iga qarab, boshqaruvni rivojlantirish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;
- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbik kilish kobilyatiga ega bo‘lishi;
- informatsion texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish qobilyatiga ega bo‘lishi;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish qobilyatiga ega bo‘lishi;
- bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish, o‘z ishining natijalarini baholash **qobilyatlariga ega bo‘lishi kerak.**

Tibbiy-profilaktika faoliyatida:

- axoli salomatligini muxofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar;
- kasalliklarning xavfli omillarini aniqlash va oldini olish, sog‘lomlashtirish;
- aholining sanitariya-gigienik saviyasini oshirish, profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;
- aholini sog‘lomlashtirish, bemorlarni parvarishlash va kuzatish **qobilyatlariga ega bo‘lishi kerak.**

Uslubiy faoliyatida:

- hamshiralik ishini takomillashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borish va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish, seminarlar o‘tkazish;
- davolash profilaktik muassasalari faoliyatini va aholi salomatligining asosiy ko‘rsatkichlarini qayd etish, tahlil etish va xisobot tayyorlash **qobilyatlariga ega bo‘lishi kerak.**

Tashxislash faoliyatida:

- bemorni sub’ektiv va ob’ektiv tekshirish;
- tekshiruv asosida hamshiralik diagnozini qo‘yish **qobilyatlariga ega bo‘lishi kerak.**

Reabilitatsiya faoliyatida:

- bemorlarni parvarishda hamshiralik jarayonini qo‘llash;
- bemor va nogironlarda kasbiy faollikni, jismoniy tetiklikni va ruhiyatni qayta tiklash **qobilyatlariga ega bo‘lishi kerak.**

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda tibbiyotga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;
- internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- tibbiyotga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;
- kasbiy faoliyat ob’ekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o‘rganish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda tadqiqotlar o‘tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish;
- ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish;
- ilmiy muammolar yechimi natijalarini amaliyotga joriy etish **qobilyatlariga ega bo‘lishi kerak.**

Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:

- oila va alohida aholi guruhlari o‘rtasida inson salomatligiga ta’sir qiluvchi asosiy

ijtimoiy-gigienik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash va xavf omillarini bartaraf qilish *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*

Pedagogik faoliyatida (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida):

- uzluksiz talim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish (o'quv personal);
- o'rta maxsus talim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini egallash va tatbiq etishni bilish;
- O'MKHT tizimining mos o'quv muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarni o'tqazish qobiliyatiga ega bo'lish;
- zamonaviy informatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik xujjatlarni shakllantirish va tuzish qobiliyatiga ega bo'lish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*

3. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

5510700 – Oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fanlar dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzluksizlik va uzviylik ta'minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalarning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o'zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- gumanitar va ilmiy-tabiiy;
- klirikagacha bo'lgan;
- klirik;
- qo'shimcha.

Kasb faoliyati ko'nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o'tilishi nazarda tutilishi shart.

O'quv rejalar majburiy o'quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o'z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fanlar dasturlarini o'zlashtirishda talabalarning o'quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

O'quv reja kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari va klinik o'quv amaliyoti oliy ta'lim muassasasi hamda davolash profilaktika muassasalarida o'tkaziladi.

Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash uchun talabalarning malakaviy amaliyotlari davolash profilaktika muassasalarida o'tkaziladi.

3.1. O'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

Gumanitar va tabiiy ilmiy fanlar bloki:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalaridagi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blokiga qo'yiladigan umumiy talablar asosida belgilanadi.

Klinikagacha fanlar bloki:

umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzviylik hamda uzluksizlikni inobatga olgan holda matematik tushunchalar va tasavvurlar umumiyliigi, matematik usullar va modellar, tibbiy informatsion tizim, tibbiyotda lotin tili terminologiyasining mohiyati va ahamiyati, terminoelementlar bo'yicha klinik atamalar, fizikaviy, kimyoviy, biologik va biologik kimyo, molekulyar biologik jarayonlarning o'zaro ta'sirlashuvi, zamonaviy tibbiy

bilim olishni o'ziga xosligi va rivojlanishning asosiy bosqichlari, maxsus klinika va markazlarda davolash texnologiyalari tizimi tuzilishining umumiy prinsiplari; tibbiy asboblarning texnik xujjatlari, fizikaviy qonuniyatlarning tirik organizmdagi jarayonlarga tatbiq etish, kimyoning asosiy qonunlari, organik birikmalarning tuzilish nazariyasi, organizmda kechadigan biokimyoviy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, patologik holatlarda moddalar almashinuvining buzilishi haqida tasavvurlarni shakllantirishi;

tabiiy fanlarning o'zaro fundamental birligi, tibbiyot sohasida fundamental va klinik fanlarni o'zlashtirish uchun anatomiya va klinik anatomiya fanining zarurligi, organizmning o'sishi, shakllanishi, rivojlanishining asosiy qonuniyatlarining mohiyati, ularning tashqi muhit bilan munosabatini ta'minlayotgan tizimlar hamda ularning yoshga nisbatan o'zgarishi, zamonaviy tibbiy mikrobiologiya va parazitologiya fani, uning maqsad va vazifalari, odam hayot faoliyati jarayonida fiziologik funksiyalarning boshqarilishi va asosiy qonuniyatlari haqidagi nazariy hamda ilmiy tasavvurlarni shakllantirishi;

fiziologiyaning asoslari, qonuniyatlari, organizmning shakllanishi, rivojlanishi va funksiyalarning boshqarilishi tamoyillarini, patologik jarayonlar va ijtimoiy-ekologik omillarning ahamiyati, kasalliklar rivojlanishining asoslari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishi;

atrof-muhit omillarini gigienik nuqtai-nazardan baholash, atrof - muhit bilan odam organizmi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy-gigienik omillar, kasalliklarning rivojlanishida atrof-muhit omillarining tutgan o'rni, keng tarqalgan kasalliklarning birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika asoslari, gigienik talablar bo'yicha nazariy va ilmiy bilimlarni shakllantirishi;

ta'lim yo'nalishi uchun zarur bo'lgan fundamental fanlarni chuqur o'rganishning ilmiy va nazariy asoslarini ta'minlashi lozim;

matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o'rtasida ilmiy va nazariy bog'liqlikni ta'minlashi;

ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi;

ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

hamshiralik ishi maqsadi, vazifalari va hamshiralik ishi bosqichlari; tibbiy etika, deontologiyaning zamonaviy aspektlari va modullari, sanalogiya va valeologiya asoslari, bioetika shuningdek, tibbiyot hamshirasi kasb etikasi, hamshiralik jarayonining bosqichlari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirishi;

insoniyat taraqqiyoti, jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashda hamshiralik ishini boshqarishning ahamiyati, tibbiy-sanitariya yordamni to'g'ri tashkil etish asoslari, insonni insonga, jamiyatga, tashqi muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi etik va huquqiy me'yorlar, jamiyat salomatligini shakllantiruvchi asosiy qonuniyatlari va omillar, ijtimoiy sharoitlar, turmush tarzi, tashqi muhit omilari, aholi salomatligini saqlash bo'yicha mahalliy boshqaruv organlari va oliy ma'lumotli hamshiraning asosiy vazifalari, majburiyat va huquqlari, hamshiralik ishining nazariy hamda ilmiy asoslari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirishi;

tibbiyot muammolarini o'rganish va hal etish bo'yicha epidemiologik yondoshishning xususiyatlari, kasalliklarning xavf omillarini, ularning profilaktikasi, aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishining umumiy qonuniyatlari, asosiy qonunshunoslik aktlari, epidemik jarayonining rivojlanish mexanizmi, sharoit va sabablari, profilaktik va epidemiyaga qarshi chora tadbirlarning tizimi va tarkibi bo'yicha zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun asos yaratishi;

hamshiralik ishini boshqaruv - rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash va muvofiqlashtirish bo'yicha ko'rsatkichlarini tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tibbiyotda farmakologiya fanining asoslari, mazmuni, amaliy tibbiyotdagi o'rni va ahamiyati, dori vositalarining ta'sir mexanizmlari va qo'llanishi, sog'liqni saqlash bo'yicha qonunchilik asoslari; tibbiy xodimlar, bemorlarning huquq va majburiyatlari; tibbiy faoliyatga taalluqli fuqarolik, ma'muriy va jinoiy huquq me'yorlari; tibbiy xodimlarning kasb

huquqbuzarlighi holatlarida olib boriladigan tergov ishlarining xususiyatlari bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lish va mukammallashtirishni ta'minlashi;

Klinik fanlar bloki:

terapiya va xarbiy–dala terapiyasida, gerontologiyada hamshiralik ishi fanining maqsad va vazifalari, ichki kasalliklarni keltirib chiquvchi omillar, simptomlari va sindromlari, hamshiralik jarayonining davolashdagi o'rni, terapevtik bemorlarni parvarishini tashkil etishda hamshiralik jarayoni asosida hamshiralik kasallik tarixini yuritish qoidalari, evakuatsiya bosqichlarida va favqulotda vaziyatlarda shoshilinch yordamni tashkil etish, qariyalar bilan muloqot o'rnatish, hamshiralik jarayoni asosida parvarishlashni ta'minlash, oila a'zolariga maslahatlar berish, parvarishga oid ko'nikmalar, katta va keksa yoshdagi kishilarning sog'ligini mustaxkamlash va ximoya qilish to'g'risida tadbirlarni tashkil qilish va asoslash bo'yicha zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi;

endokrinologiya, onkologiya, xirurgiya, asab kasalliklarda, pediatriya va neonatologiyada hamshiralik ishi asoslari, inson organizimida endokrin tizim va endokrin bezlarining xususiyatlarini, gormon turlari, keng tarqalgan endokrin kasalliklarning oldini olish, hamshiralik parvarishini tashkil etish, xavfli o'smalarning asosiy nozologik turlarini, ularning profilaktikasi va erta diagnostikasini, xavfli o'smalarning zamonaviy davolash usullari va ulardan kelib chikadigan asoratlarini, turli aholi guruxlarida profilaktik ko'riklarni tashkil qilish prinsiplarini, xirurgiyada hamshiralik jaraeni asosiy bosqichlari, hamshiralik parvarishi asosiy toifalarining deontologik asoslari, operatsiyadan oldin va keyin bemorni kuzatish asosiy qoidalari, xirurgik bemorni parvarish qilish asosiy koidalari, asab kasalliklar xakida tushuncha va kasallik etiologiyasi, tarkalishi, nerv tizimnig tuzilishi, keng tarqalgan asab kasalliklarning oldini olish, aholiga tibbiy nevrologik xizmatni tashkil etish, pediatriya va neonatologiya fanlarining nazariy asoslari, bolalar organizmining anatomik-fiziologik xususiyatlari bolalar jismoniy rivojlanishining monitoringi; turli yoshdagi bolalarda kasalliklarning o'ziga xos xususiyatlari bolalardagi kasalliklarda parvarishlash chaqaloqlarning anatomiyasi va fiziologiyasi rivojlanish xususiyatlari neonatologiyada hamshiralik jarayoni chaqaloqlar orasida keng tarqalgan kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, asosiy klinik belgilari, klinik va laborator-instrumental tekshirish usullari bo'yicha zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi;

favqulotda vaziyat va tabiiy ofat tushunchalari va turlari, bemorlarni saralash, shoshilinch tibbiy yordam berishning rivojlanishi tarixi va ta'rifi, shoshilinch tibbiy yordamda hamshiralik jaroyoni, birinchi shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishda hamshiraning o'rni haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi;

hamshiralik ishida akusherlik va ginekologiyaning dolzarb masalalari, ayol organizmining o'ziga xos xususiyatlari va kuzatiladigan o'zgarishlar, reproduktiv salomatlikni aniqlash usullari, homiladorlik va tug'ruq faoliyatini to'g'ri olib borish, ginekologik kasalliklarning oldini olish, kontratsepsiya, reproduktiv salomatlik asoslari va oilani rejalashtirish tamoyillarini to'liq o'rganish uchun asos yaratishi hamda rivojlantirishi;

psixologiya predmeti va uning vazifalari, tibbiy va pedagogik amaliyot jarayonida psixologiyaning ahamiyati, kasalliklar va uning psixologik jihatlari, etika va deontologiyaning asosiy prinsiplari, asosiy tarqalgan ruhiy kasalliklar, psixoprofilaktika va psixogigienaning asosiy prinsiplari, ruxiy patologiyasi bo'lgan bemorlarga hamshiralik yordami ko'rsatishni tashkillashtirishning asosiy qoidalarini to'liq bilish va amalda qo'llay olishiga sharoit yaratishi;

ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi hamda egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishiga zamin yarata olishi lozim.

tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati ko'nikmalari va uquvlarini shakllantirishi;

hamshiralik sohasi bo'yicha boshqarishni yoritish, xodimlarning ishini samaradorligini ishlab chiqish; sog'liqni saqlash tizimining asosiy muammolari va uning rivojlanish istiqbollari, uning ilmiy-texnik taraqqiyot davridagi o'rni va atrof muhitni saqlashda boshqa mutaxassisliklar bilan o'zaro bog'liqlik; mexnat jamoasida ijtimoiy – psixologik boshqarishni

nazorat qilish; hamshiralik xizmati va bo'limlarini iqtisodiy taminotini yoritish, rejalash, tashkil etish va boshqarish sog'liqni saqlashning birlamchi tizimida tibbiy hujjatlarni to'g'ri yuritishi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishi;

ayol organizmdagi funksional tizimlarning o'zaro bog'liqligi va regulyatsiyasini, sog'lom xayot kechirish tarzi va salomatlikning ijtimoiy ahamiyatining gigienik asoslarini, kontratsepsiyaning hamma usullarini maslahatlash bilimlarini va bachadon ichi spiralini qo'yish va olishni, oila qurishni rejalashtirish, etika, jinsiy munosabatlar gigienasi va kontratseptiv vositalardan foydalanish masalalarini; akusherlikda shoshilinch xolatlar va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishni, onalar va bolalar salomatligini saqlash bo'yicha chora tadbirlarni; akusherlikda keng tarqalgan kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, epidemiologiyasi, asosiy ko'rinishlarini, kriteriyalarini, klinik va laborator - instrumental diagnostikasini, kechishini, fiziologik xomiladorlik va fiziologik tug'ruqni olib borishni, tug'ruqdan keyingi davrda hamshiralik jarayonni, ko'krak suti bilan ovqatlantirish tamoyillari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishi;

oliy ma'lumotli hamshira faoliyatida ko'p uchraydigan jarrohlik kasalliklari bilan og'rikan bemorlarni vrachgacha bo'lgan yordam ko'rsatish tamoyillarini bilishi, jarrohlik amaliyotini talab qiluvchi surunkali jarrohlik kasalliklarining belgilarini erta va to'g'ri aniqlashi, birlamchi jarrohlik yordamini ko'rsatish, xirurgiyada hamshiralik jaraeni asosiy bosqichlari, hamshiralik parvarishi asosiy toifalarining deontologik asoslari, operatsiyadan oldin va keyin bemorni kuzatish asosiy qoidalari, xirurgik bemorni parvarish qilish bo'yicha ko'nikmalarni bajara olishga sharoit yarata olishi;

O'tkir nafas, o'tkir yurak – tomirlar yetishmovchiligida, komatoz xolatlarda, ekzogen zaxarlanishlarda, gipetermik sindromlarda, talvasa sindromlarida, operatsiyalardan keyin hamshiralik parvarishini ko'rsatishning o'ziga xos tomonlari, og'riqsizlantirishning zamonaviy nazariy va amaliy metodlari, operatsiya vaqtida va operatsiyadan keyin organ va sistemalarning xayotiylik funksiyalarini nazoratlash usullari, reanimatsiya va intensiv terapiyada zamonaviy texnologiyalar, xalokatlarda hamshiralik jarayoni bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishni shakllantirishi;

ta'lim yo'nalishi negizidagi muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga ongli munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi lozim.

Tanlov fanlari:

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda tanlov fanlarining tarkibi va ularning mazmuniga qo'yilgan talablar OTM Kengashi tomonidan belgilanadi.

Qo'shimcha fanlar bloki:

ta'lim yo'nalishi talabalarning umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bo'yicha qo'shimcha ravishda chuqur bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishi;

tibbiyot soxasidagi axborotlardan taxliliy baholash va foydalanishni, dalillarga asoslangan izlanishlar natijalarini amaliyotda qo'llashni jadallashtirishi;

ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar va mehnat bozori kon'yukturasi tez o'zgarayotgan sharoitda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalar va fan dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo'lishini ta'minlanishi;

kasbiy faoliyat strategiyasi va taktikasini to'g'ri tanlay olish, kasbiy nuqtai nazarning barqarorligini ta'minlashi lozim.

3.2. 5510700 – Oliy hamshiralik ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 soat qilib belgilanadi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 36 soatgacha qilib belgilanishi mumkin.

O'qishning normativ muddati uch yil bo'lgani holda o'quv jarayoni 152 hafta davom etishi zarur.

**O'quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:
nazariy va amaliy ta'lim -**

63-70 %;

attestatsiyalar -	8-10 %;
ta'lim -	12-16 %;
malakaviy amaliyot -	6-12 %;

Nazariy va amaliy ta'lim hajmi "Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot" bilim sohasiga muvofiq fanlar bloklari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar	5-7 %;
klirikgacha fanlar	20-25%;
klirik fanlar	55-65 %;
qo'shimcha fanlar	3-7 %.

O'quv yilida ta'lim davrining umumiy hajmi 7 - 8 hafta qilib belgilanadi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Oliy malakali hamshiralik ishi, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, sog'liqni saqlash tizimi, klinika, laboratoriya, amaliy ko'nikmalar, kasallik, davolash muassasalari, profilaktika, Oliy ma'lumotli hamshira, hamshiralik ishida boshqaruv, hamshiralik jarayon, hamshiralik tashxis.

Ишлаб чиқувчилар, келишилган асосий тиббиёт ташкилотлари
кадрлар истеъмолчилари

ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН:

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги ҳузуридаги
Республика тиббий таълимни ривожлантириш маркази



Директор  **Н.Р. Ягиева**

201_ йил « ____ » _____

Тошкент педиатрия тиббиёт институти



Ректор  **Б.Т. Даминов**

201_ йил « ____ » _____

КЕЛИШИЛГАН:

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги
Вазирнинг Ўқувинчи уринбосари  **Б.К. Юсупов**



201_ йил « ____ » _____

М.Ў.

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги
Фан ва тиббий таълим Бош бошқармаси



Бошқарма бошлиғи  **Ў.С. Номанов**

201_ йил « ____ » _____

Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳузуридаги
Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимни
Ривожлантириш маркази



Директор  **Б.Х. Рахимов**

201_ йил « ____ » _____

М.Ў.